

BUXGALTERIYA HISOBIDA ASOSIY VOSITALAR TURKUMLANISHI VA BAHOLASH TARTIBI

Barnoyev O.

Jizzax politexnika instituti Iqtisodiyot va menejment kafedrasi assistenti

Baxtiyorova S.

Servis fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy vositalarni nima uchun turkumlanishi, asosiy vositalarni qanday mezonlar bo'yicha turga bo'linishi, hamda baholash tartibi qandayligi, asosiy vositalarni qiymatlari va asosiy vositalarning taxminiy foydali hayoti haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Asosiy vositalar, asosiy vositalarni turkumlanishi, asosiy vositalarni baholash tartibi, asosiy vositalarni turlari, asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati, asosiy vositalarni qayta hisoblash.

5-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) da asosiy vositalarga quyidagicha ta'rif berilgan:

“Asosiy vositalar - korxonadan uzoq muddat davomida faoliyatni yuritishda mahsulotda ishlab chiqarish ishlarini bajarish va xizmatlarni ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar”.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi.

- a) 1 yildan ortiq xizmati muddati.
- b) Bir-birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqqini haqqi miqdorining 50 barobaridan ortiq bo'lgan buyumlar.
- c) Ijaraga berilishi mumkin bo'lgan aktivlar.

Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish xususiyatiga ko'ra harakatdagi va harakatsiz (zaxirada yoki konservatsiyada bo'lish) asosiy vositalar, maqsadiga ko'ra ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (uy va kommunal va ijtimoiy-madaniy obyektlarning asosiy vositalari) mavjud.

Ishlab chiqarish asosiy fondiga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish maqsadida bino va inshootlar uzatuvchi qurilmalari dastgoh va mashinalar asbob-uskunalar transport vositalari kompyuter texnikasi asboblari va ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlar, ularni ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarda va ishlab chiqarish uchun bevosita ishtirok etadi.

Noishlab chiqarish asosiy vositalari korxonadan mehnat jamoasining a'zolarining ijtimoiy va maishiy xizmatlari uchun mo'ljallangan asosiy vositalardir. Bularga korxonaning balanslar ro'yxatga olingan turar-joy binolari, maishiy xizmatda obyektlari, ijtimoiy va madaniy obyektlar kiradi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy vositalarini quyidagicha ajratish mumkin:

- a) amaldagi (foydalanishdagi).
- b) faoliyat ko'rsatilmayotgan (uch oydan ortiq muddatini konservatsiya qilingan).
- c) zaxirada bo'lgan.

Asosiy vositalarni baholash. O'zbekiston Respublikasida BHMS № 5 da asosiy vositalar boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Boshlang'ich qiymat – bu aktivlarni sotib olish, qurish, ishlab chiqarish va boshqa yo'llar bilan kelib tushgan vaqtda shakllangan qiymati. Ushbu qiymat o'z ichiga aktivlarni sotib olishga, qurishga va ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni oladi. Bepul kelib tushgan aktivlarning boshlang'ich qiymati komissiya tomonidan ekspert yo'li bilan topiladi. Shu jumladan to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar), shuningdek aktivni undan maqsadga muvofiq foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlar.

Asosiy vositalarni qayta baholash - asosiy vositalarini tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlarini darajasida moslashish maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlash foydalanish sharoitlarning o'zgarishiga qarab tashqi omillar xususan inflyatsiyaning ta'siri asosiy vositalarini qayta tiklanishi va qayta tiklash qiymatiga ega bo'lishi mumkin.

Joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxleri bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa.

Qoldiq (balans) qiymat - jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. A. Xasanov, A.A.Xoshimov, A. B.Muxametov, A.A.Abduvohidov; - T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2021 992 b.
2. Baytanov, O. R. (2017). Ўзбекистонда солиқ тизимини такомиллаштириш орқали оилавий тадбиркорликни янада ривожлантириш. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 6, 62-68.
3. RAQAMLI, I., & ELEKTRON, T. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI. *ЭКОНОМИКА*, 36-38.

